

Fanlar akademiyasi hududiy bo'limlari raislar tayinlandi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda 390-sonli qarori (<https://lex.uz/uz/docs/-7954065>)ga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Surxondaryo, Samarqand hamda Namangan hududiy bo'limlarini tashkil etish belgilangan.



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidentining tegishli buyrug'iga muvofiq Samarqand davlat universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor XOLMURODOV Rustam Ibragimovich Samarqand hududiy bo'limiga, Termiz davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Toshqulov Abduqodir Hamidovich Surxondaryo hududiy bo'limiga hamda Namangan bo'limiga Namangan davlat universiteti prorektori, biologiya fanlari doktori, professor DEHQONOV Davron Burxonovich jamoatchilik asosida rais etib tayinlandi.